



BIOLOGIYA FANINIDAN YANGI MAVZUNI TUSHUNTIRISH JARAYONIDA “ZIG-ZAG” METODINI QO’LLASH

Otajanova Gulora Otaxanovna

TTA Urganch filiali akademi litseyi biologiya fani o`qituvchisi

Anntotsiaysi: *Ushbu maqolada hozirgi ta’lim tizimida yangi, zamonaviy pedagogik metodlarning o‘rnini va ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Biologiya fanida o’quvchilarda tafakkur, xotira, diqqat, kuzatuvchanlik, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga imkon beradi. Shuningdek maqolada interfaol metodlar orqali o’qitish, o’quvchilarning bu metodlar orqali biologiya fanida bilimlarini boyitib borishiga xizmat qilishi ko’rsatilgan.*

Kalit so’zlar: Pedagogik, kitob, biologiya, texnologiya, interfaol, axborot, ta’lim, fikr, jamoa.

Kelajagi buyuk davlatda yashayotgan xalqni har tomonlama komil insonlar bo’lishi talab etiladi. Yoshlarni zamonaviy fan-texnikaning, umuman, ilm-fanning yutuqlaridan bahramand qilmasdan turib, ularga yuqori malakali ixtisos egalari bo’lib yetishishga sharoit tug’dirmay turib, biz respublikamiz xalq xo’jaligini, sanoat ishlab chiqarish sohalarni tubdan o’zgartira olmaymiz. Yana bir narsani biz hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz lozim: iste’dodli yoshlarga sharoit yaratish¹¹.

Biologiya darslarida o’quvchilarning metodik va didaktik ta’minotni takomillashtirish masalalarini tadqiq etish, mavzu yuzasidan metodik ishlanmasini takomillashtirish bo‘yicha xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqishdan va shu bilan birga biologiya soxasida chuqur fundamental bilimlarga va mustaqil ravishda eksperimental izlanishni olib borish kobilyatiga ega bo’lgan, ilmiy izlanish va amaliy ishlarda biologiyaning zamonaviy metodlarni effektiv ko’llay oladigan, olingan natijalarni umumlashtirish va taxlil qilish qobiliyatiga ega bo’lgan mutaxassislarni yetishtirishdan iborat

“Zig-zag”:

1-bosqich - mayda guruhlarga ajratiladilar va spiker (boshliq sayylanadi).

2-bosqich - o’quvchilar raqamlanadilar va bir xil raqamlar bir-birini “topadilar”.

3-bosqich - topshiriq beriladi.

I guruh vazifasi:

Masala. Hayotning tur va populatsiya darajasi umumiyl tavsifiga oid ma'lumotlarni qisqa muddat ichida o‘qib o’zlashtirish.

II guruh vazifasi:

Masala. Tur tushunchasi umumiyl tavsifiga oid ma'lumotlarni qisqa muddat ichida o‘qib o’zlashtirish.

¹¹ И.А.Каримов “Ўзбекистон мустақиллика эришиш остонасида” Т.: ЎЗБЕКИСТОН 2011-йил 142-бет.

III guruh vazifasi:

Masala. Tur mezonlari umumiy tavsifiga oid ma'lumotlarni qisqa muddat ichida o'qib o'zlashtirish.

IV guruh vazifasi:

Masala. Turlarni bir-biridan farqlashda turli mezonlardan foydalanishning ahamiyat bayon etilgan ma'lumotlarni qisqa muddat ichida o'qib o'zlashtirish.

V guruh vazifasi:

Masala. Tur mezonlariga xos bo'lgan grafik tuzilishi, formulasi bayon etilgan ma'lumotlarni qisqa muddat ichida o'qib o'zlashtirish.

VI guruh vazifasi:

Masala. Tur mezonlarilarni taqqoslashga doir keltirilgan ma'lumotlarni qisqa muddat ichida o'qib o'zlashtirish.



4-bosqich – berilgan topshiriqni o'zlashtirish uchun berilgan vaqt tugagach, yana o'z joylariga qaytib boradilar, har bir a'zo o'zi o'zlashtirgan materialni eski sheriklariga aytib beradi.

5-bosqich – o'qituvchi guruxlarga savol beradi va javoblar baholanadi.

I guruh uchun savol.bir turga kiruvchi individlarning tashqi va ichki tuzilishining o'xshashligini ifodalaydi bu ta`rif qaysi tur mezoniga mos keladi ?


II guruh uchun savol.

- 1) Rasmga qarab qaysi tur mezonlarga mos kelishini ayting va ularga ta`rif bering ?
- 2) Ramda keltirilgan kapalaklarni va qushlarni nomlarini to`g`ri keltiring ?



III guruh uchun savol.

- 1) Rasmga qarab qaysi tur mezonlarga mos kelishini ayting va ularga ta`rif bering ?
- 2) Ramda keltirilgan kapalaklarni va qushlarni nomlarini to`g`ri keltiring ?



IV guruh uchun savol.

- 1) Fiziologik mezonga ta`rif bering ?
- 2) Dastlab olimlar tur haqida qanday fikrlar bildirgan?
- 3) Geografik mezonga ta`rif bering ?

V guruh uchun savol.

- 1) Biokimiyoviy mezon ta`rif bering ?
- 2) Tur tushunchasini birinchi bo`lib fanga kiritgan olim haqida ma'lumot bering.
- 3) Sudraluvchi ayiqtovon qayerllarda uchraydi va uning turlari qanday belgilar asosida farqlanadi?

VI guruh uchun savol.

- 1) Rasmga qarab qaysi tur mezonlarga mos kelishini ayting va ularga ta`rif bering ?
- 2) Ramda keltirilgan kapalaklarni va qushlarni nomlarini to`g`ri keltiring ?



6-bosqich – guruxlar baholari guruxlarning raqamlari ko`rsatilgan jadvalga qo`yib boriladi.

Har bir raqamlanganlar yangi va har xil topshiriqlar olganini hisobga olsak, har bir o`quvchi o`z guruhi manfaati uchun ham berilgan topshiriqni bilishi kerak va bilishga majbur. Chunki, u o`z guruhiga qaytganda, o`rgangan mavzu bo`yicha savol-javobda guruhi nomidan qatnashishi kerak.

Ushbu pedagogik texnologiya yordamida talabalar o`qigan ma'lumotlarini 80-90% o`zlashtiradi. Sababi ushbu jarayonda, o`qiydilar, eshitadilar, ko`radilar, gapirib



beradilar va amalda bajaradilar. Insonlar bilimlarini o‘qiganlarining taxminan 10%ini, eshitganlarining 20%ini, ko‘rganlarining 30%ini, ko‘rgan va eshitganlarining 50%ini, o‘zi gapirib bergenlarining 70%ini va o‘zi amalda bajarganlarining 90%ini eslab qolar ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. **Interfaol ta’lim usullari” Sh.K Shayaqubov, R.X Ayupov Toshkent-2020**
2. **Ishmuhamedov R., Abduqodirov A.A., Pardaev A. Ta`limda innovatsion texnologiyalar(ta`lim muassasalari pedagog-o’qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).** Toshkent 2008 y., 181 b.
3. **To’raqulov X.A. Pedagogik tadqiqotlarda axborot tizimlari va texnologiyalari.T., “Fan”, 2006 y., 240 b.**